

**YASHIL IQTISODIYOT: BARQAROR RIVOJLANISH VA EKOLOGIK
SAMARADORLIK!**

Tog'ayeva Barchinoy Normo'min qizi

Termiz davlat universiteti 2-bosqich talabasi

Ahmedov Alim Babaniyazovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada yashil iqtisodiyotning mohiyati, asosiy tamoyillari va uning barqaror rivojlanishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Yashil iqtisodiyotning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy afzalliklari tahlil qilinib, global tajribalar misolida uning muvaffaqiyatli joriy etilish usullari yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish kabi chora-tadbirlar haqida batafsil ma'lumot beriladi. Maqola zamonaviy, iqtisodiy rivojlanishda yashil iqtisodiyotning strategik ahamiyatini ta'kidlash va barqarorlikka erishish yo'llarini o'rganishga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar:** "yashil" iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik tanazzul, Global iqlim o'zgarishi, Barqaror energiya, yashil texnologiyalar, biomassa va gidroenergiya, Xalqaro hamkorlik va investitsiyalar.*

Green Economy: Sustainable Development and Environmental Efficiency!

***Abstract:** This article examines the nature of the green economy, its main principles and its importance in sustainable development. The environmental, social and economic advantages of the green economy are analyzed, and the methods of its successful implementation are highlighted on the example of global experiences. Also, detailed information will be given about the reforms implemented in Uzbekistan regarding the transition to a green economy, the development of renewable energy sources, the rational use of resources, and the introduction of environmentally friendly technologies. The article is aimed at highlighting the strategic importance of the green economy in modern economic development and studying ways to achieve stability.*

***Keywords:** green economy, sustainable development, environmental degradation, global climate change, sustainable energy, green technologies, biomass and hydropower, international cooperation and investment.*

Зеленая экономика: устойчивое развитие и экологическая эффективность!

Аннотация: В данной статье рассматривается природа зеленой экономики, ее основные принципы и значение в устойчивом развитии. Проанализированы экологические, социальные и экономические преимущества зеленой экономики, а также выделены методы ее успешной реализации на примере мирового опыта. Также будет дана подробная информация о реализуемых в Узбекистане реформах в части перехода к зеленой экономике, развития возобновляемых источников энергии, рационального использования ресурсов, внедрения экологически чистых технологий. Целью статьи является освещение стратегической важности зеленой экономики в современном экономическом развитии и исследование путей достижения стабильности.

Ключевые слова: «зеленая» экономика, устойчивое развитие, деградация окружающей среды, глобальное изменение климата, устойчивая энергетика, зеленые технологии, биомасса и гидроэнергетика, международное сотрудничество и инвестиции.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiy rivojlanish bilan birga ekologik muammolar ham kuchayib bormoqda. Jahon Iqtisodiy Forumining ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yil ichida global iqlim o'zgarishi va ekologik ifloslanish iqtisodiy yo'qotishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi¹. Xususan, har yili iqlim o'zgarishi sababli dunyo iqtisodiyoti taxminan 1,5 trillion dollarlik zarar ko'rmoqda². Shu bilan birga, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) hisobotiga ko'ra, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali dunyo iqtisodiyotiga yiliga qo'shimcha 7 trillion dollargacha foyda keltirish mumkin³.

Yashil iqtisodiyot ushbu muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga yo'naltirilgan muqobil iqtisodiy model sifatida dunyo miqyosida e'tibor qozonmoqda. Masalan, Germaniya va Shvetsiya kabi davlatlar qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish orqali iqtisodiy barqarorlik va atrof-muhit muhofazasini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. O'zbekistonda ham 2019–2030-yillar uchun yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi qabul qilinib, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda⁴.

Ushbu maqola yashil iqtisodiyotning ahamiyatini, uning asosiy tamoyillarini va O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari tahlil qilishga qaratilgan.

"Yashil iqtisodiyot" atamasi dastlab 1989-yilda London Atrof-muhit iqtisodchilari guruhi tomonidan ishlab chiqilgan hisobotda qo'llangan. Keyinchalik,

¹ G'ulomova Sh.B. "Iqtisodiyotning yangi yo'nalishlaridan biri - yashil iqtisodiyot va uning asosiy tamoyillari"

² <https://www.weforum.org/publications/global-risks-report-2025/>

³ <https://www.unep.org/>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi".

2008-yilda global moliyaviy inqiroz fondida BMTning Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlanish strategiyasi sifatida ilgari surdi. BMT Atrof-muhit bo‘yicha dasturining (UNEP) ta'rifiga ko‘ra, yashil iqtisodiyot – bu "inson farovonligini oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash bilan birga, atrof-muhit xavf-xatarlarini va ekologik tanazzulni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiyotdir⁵."

Karl Burkart yashil iqtisodiyotni oltita asosiy sektorga asoslangan deb ta'riflagan:

- Qayta tiklanadigan energiya
- Yashil binolar
- Barqaror transport
- Suvni boshqarish
- Chiqindilarni boshqarish
- Yerni boshqarish

Global biznes vakili bo‘lgan Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) yashil iqtisodiyotni „iqtisodiy o‘sish va ekologik mas’uliyat ijtimoiy rivojlanishdagi taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlagan holda o‘zaro mustahkamlovchi rejimda birgalikda ishlaydigan iqtisodiyot“ deb ta'riflaydi⁶.



⁵ [UNEP - UN Environment Programme](#)

⁶ https://iccwbo.org/content/uploads/sites/3/2012/08/Green-Economy-Roadmap-a-guide-for-business_-policy-makers-and-society.pdf



Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. *Uglerod chiqindilarini kamaytirish*: Global iqlim o‘zgarishi muammosini yengillashtirish uchun iqtisodiyotning har bir sohasida uglerod izini kamaytirish. Xalqaro miqyosda, Evropa Ittifoqi (EI) iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda yetakchi rol o'ynamoqda. EI 2030-yilga kelib issiqxona gazlari chiqindilarini 1990-yil darajasidan kamida 40% ga kamaytirishni maqsad qilgan⁷.

O'zbekistonda esa, uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha sezilarli qadamlar tashlanmoqda. 2024-yil iyun oyida O'zbekiston Jahon bankining Transformatsion uglerod aktivlari jamg'armasi (TCAF) tomonidan 500 ming tonna karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirgani uchun 7,5 million dollar miqdorida grant oldi. Bu ko'rsatkich bilan O'zbekiston energiya sektorida emissiyalarni kamaytirish

⁷ <https://uz.eureporter.co/>

bo'yicha hukumat siyosatini qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida to'lov olgan dunyodagi birinchi davlat bo'ldi⁸.

Bundan tashqari, O'zbekiston "O'zbekistonda energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" (*iCRAFT*) loyihasi doirasida 60 million tonna karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishni rejalashtirmoqda. Shundan 2,5 million tonnasi loyiha doirasida sotib olinadi, qolgan uglerod birliklarini esa xalqaro uglerod bozorlarida sotish imkoniyati yaratiladi.

2. *Energiya samaradorligi*: Energiya samaradorligi jahon miqyosida hamda O'zbekistonda muhim mavzu hisoblanadi, chunki energiya resurslarini tejash va ularni samarali ishlatish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishda, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda va energiya xavfsizligini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi. Dunyo bo'ylab energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan bir nechta global tashabbuslar va yirik dasturlar amalga oshirilmoqda:

1. Parij kelishuvi (2015): Parij iqlim kelishuvi global ishtirokchilarni karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishga va energiya samaradorligini oshirishga undaydi.

2. BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG): 7-maqсад - "Barqaror energiya" - energiya samaradorligini oshirishni o'z ichiga oladi. 7.3 maqsadi 2030 yilga qadar global energiya samaradorligini ikki baravar oshirishni ko'zda tutadi⁹.

3. Xalqaro Energiya Agentligi (IEA): IEA, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan turli tashabbuslarni ko'rsatadi, masalan, "Energy Efficiency 2020" hisobotlari, unda energiya samaradorligini oshirish uchun xalqaro tajribalar va strategiyalar keltiriladi¹⁰.

O'zbekistonda ham energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab tashabbuslar va loyihalarni amalga oshirilgan. Bu borada ba'zi yirik tadbirlar va loyihalarnimisol keltirsak:

1. "Energiya samaradorligini oshirish" strategiyasi: O'zbekistonda 2021-yil dekabrda tasdiqlangan energiya samaradorligini oshirish bo'yicha strategiya, 2030 yilgacha energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator maqsadlarni belgilaydi.

2. Quyosh energiyasi va qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish: O'zbekistonda quyosh va shamol energetikasi sohasida jiddiy o'sish kuzatilmoqda. 2021 yilda, masalan, quyosh energiyasiga asoslangan 1,6 gigavatt quvvatli quyosh stansiyasining qurilishi boshlanib, kelajakda yana ko'plab loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

⁸ https://m.kun.uz/news/2024/06/21/ozbekiston-karbon-dioksidi-chiqindilarini-kamaytirgani-uchun-jahon-bankidan-75-mln-dollar-oldi?utm_source

⁹ <https://www.worldbank.org>

¹⁰ <https://www.iea.org>

3. Xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning energiya samaradorligini oshirish borasida BMT, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bir qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, Germaniya va boshqa davlatlar bilan o'zaro kelishuvlar orqali energiya samaradorligi bo'yicha tajriba almashish davom etmoqda.

4. Yangi texnologiyalar va energiya samaradorligi dasturlari: O'zbekistonda avtomatik boshqaruv tizimlari, energiya tejovchi qurilmalar va yuqori samarali uskunalar joriy etilmoqda. Bu texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejashni ta'minlaydi.

3. *Barqaror qishloq xo'jaligi* - bu tabiiy resurslarni tejash, iqlim o'zgarishiga moslashish, va qishloq xo'jaligi faoliyatidan kelib chiqadigan ekologik ta'sirlarni kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan amaliyotlar yig'indisidir.

1. BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (SDG): 2-maqsad - "Ocharchilikni tugatish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va yaxshi ovqatlanishni amalga oshirish" - barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

2. Global Barqaror Qishloq Xo'jaligi Insoniyatining To'g'ri Rivojlanishi: BMTning Qishloq Xo'jaligi Tashkiloti (FAO) tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar va yondashuvlar barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. FAO "Barqaror Qishloq Xo'jaligini Rivojlantirish" dasturlari orqali o'zgaruvchan iqlim sharoitlariga moslashish va resurslarni samarali ishlatishni ta'minlaydi¹¹.

3. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish: Barqaror qishloq xo'jaligi, shuningdek, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishning muhim qismi hisoblanadi. Turli xalqaro dasturlar, masalan, "International Climate Initiative" (IKI), barqaror dehqonchilik va chiqindilarni kamaytirish usullarini o'rgatishga yordam beradi.

O'zbekistonda barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qator tashabbuslar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar, asosan, suv resurslarini tejash, tuproq unumdorligini saqlash, va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining barqarorligini oshirishga qaratilgan.

1. Suv resurslarini boshqarish bo'yicha "Suvni tejash texnologiyalari" va "irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish" kabi dasturlar yordam beradi.

2. O'zbekistonda tuproq unumdorligini saqlash va tuproqni deyarli zarar bermasdan ishlatish bo'yicha bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Organik qishloq xo'jaligi usullari va tuproqni o'zgartirish, ekinlar ekish texnologiyalari sohasidagi yangiliklar qishloq xo'jaligini barqarorlashtirishga qaratilgan.

¹¹ FAO - Barqaror qishloq xo'jaligi bo'yicha ma'lumotlar (<https://www.fao.org>)

3. O‘zbekistonda barqaror dehqonchilik texnologiyalari (masalan, suvsiz va ko‘p ekinli tizimlar) joriy etilmoqda. Qishloq xo‘jaligini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish uchun ekologik toza texnologiyalarni qo‘llash, ishlab chiqarish va ishlab chiqaruvchilarning farovonligini oshirishga yordam beradi.

4. Aholining qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ta‘limi: O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasida o‘qitish va xabardorlikni oshirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Mahalliy fermerlar va agrar sohada ishlayotganlar uchun barqaror qishloq xo‘jaligi, organik dehqonchilik va ekologik toza mahsulotlar yetishtirish bo‘yicha treninglar o‘tkazilmoqda¹².

4. *Yashil texnologiyalar* bu - tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni himoya qilish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni anglatadi. Bu texnologiyalar, asosan, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, va ekologik izlarni kamaytirishga qaratilgan.

Yashil texnologiyalar - bu tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni himoya qilish, va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni anglatadi. Bu texnologiyalar, asosan, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, va ekologik izlarni kamaytirishga qaratilgan.

Dunyo bo‘yicha yashil texnologiyalar sohasida katta rivojlanish bo‘lmoqda. Bir nechta muhim tendensiyalar va tashabbuslar quyidagilar:

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari:

- Quyosh energiyasi, shamol energiyasi, biomassa va gidroenergiya kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalari global energiya iste‘molining katta qismini egallay boshladi.

2. Energiya samaradorligini oshirish texnologiyalari:

- LED yoritish, energiya tejaydigan qurilmalar, aqlli elektr tarmoqlari yashil texnologiyalarga misol bo‘la oladi.

- IoT (Internet of Things) va sun‘iy intellekt orqali energiya samaradorligini kuzatish va boshqarish tizimlari ham rivojlanmoqda.

3. Uskunalarni qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish:

- Recycling (qayta ishlash) texnologiyalarini rivojlantirish, masalan, plastikni qayta ishlash va elektron chiqindilarni boshqarish. Yashil texnologiyalar chiqindilarni minimallashtirishga va materiallarni qayta ishlashga imkon beradi.

- "Zero waste" (nol chiqindi) tashabbuslari doirasida kompaniyalar va shaharlar chiqindilarni to‘g‘ri boshqarish va qayta ishlashni kengaytirmoqda.

¹² O‘zbekiston Respublikasi Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi (<http://www.agri.uz>)

4. Yuqoriga ko'tarilgan urbanizatsiya va yashil infrastrukturani rivojlantirish:

- Vertikal bog'lar, yashil tomlar, aqlli shaharlar - bu urbanizatsiyani ekologik toza qilishga yordam beradigan texnologiyalar.



O'zbekistonda yashil texnologiyalar sohasida sezilarli o'zgarishlar va yangiliklar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlar asosan energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va chiqindilarni boshqarish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishni maqsad qiladi.

1. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari:

- O'zbekistonda quyosh energiyasiga katta e'tibor qaratilmoqda. 2021-yilda O'zbekiston hukumati quyosh energetikasi loyihalari uchun xorijiy investitsiyalarni

jalb qilishni maqsad qilgan. 2021-yilning boshida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqildi¹³.

2. Suvni tejash texnologiyalari:

- Suv resurslarining cheklanganligi tufayli, O'zbekistonda aqlli irrigatsiya tizimlari va suvni tejash texnologiyalarini joriy etish zarur. Yashil texnologiyalar yordamida suvni samarali ishlatish, ko'plab qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishlab chiqarishni optimallashtirish mumkin.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish:

- O'zbekistonda plastikni kamaytirish va qayta ishlash borasida ham ko'plab tashabbuslar mavjud. 2020-yilning oxirida O'zbekistonda plastik paketlarni ishlatishni kamaytirishga qaratilgan dasturlar va loyihalar boshlandi.

- Boshqa ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va sanoatlarda qo'llash orqali chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslarni tejashga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda.

4. Yashil shaharlar va ekologik infrastrukturani rivojlantirish:

- Toshkentda yashil shaharlar konsepsiyasiga asoslangan loyihalar amalga oshirilmoqda. Yashil maydonlar, parklar va energiya samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustida ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, 20-noyabr kuni prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisida uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan ustuvor vazifalarni e'lon qilgandan so'ng, 2025-yilni "Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot" yili deb nomlashni tavsiya qildi. Davlat rahbari yil uchun tanlangan nomga izoh berib, bu haqda juda ko'p muddat o'ylaganini ta'kidladi.

"Qo'llab-quvvatlasangizlar, 2025-yilni Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili deb e'lon qilsak? Yil nomini shunday qo'yishimizni men juda ko'p o'yladim, sabab tabiatni asrash degan jumla ichida juda katta narsa mujassam", — dedi prezident¹⁴.

Yashil iqtisodiyotning juda ko'plab afzalliklari mavjud bo'lib quyida misollar keltirilgan:

1. Atrof-muhitni himoya qilish

• Yashil iqtisodiyot tabiiy resurslarni tejash, chiqindilarni kamaytirish va atrof-muhitni ifloslanishdan saqlashga qaratilgan. Bu, o'z navbatida, ekologik muvozanatni saqlash va iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytiradi.

2. Barqaror rivojlanishni ta'minlash

¹³ O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (<http://minenerg.uz>)

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti (<https://prezident.uz/>)

- Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi. Energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga sarmoya kiritish va chiqindilarni qayta ishlash kabi amaliyotlar orqali kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslar saqlanadi.

3. Energiya samaradorligini oshirish

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga (masalan, quyosh, shamol) asoslanish energiya sarfini kamaytiradi, energiya tejashga olib keladi va energetik xavfsizlikni ta'minlaydi. Bu energiya tizimining barqarorligini oshiradi.

4. Iqtisodiy o'sish va ish o'rinlarini yaratish

- Yashil iqtisodiyot yangi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yordam beradi, masalan, qayta tiklanuvchi energiya sektori, ekologik qurilish, chiqindilarni qayta ishlash va organik qishloq xo'jaligi. Bu esa yangi ish o'rinlarini yaratadi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

5. Xalqaro hamkorlik va investitsiyalarni jalb qilish

- Yashil iqtisodiyot ekologik toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshiradi. Bu orqali mamlakatlar ekologik loyihalarni amalga oshirish uchun ko'proq mablag' topishi mumkin.

6. Sog'liqni saqlashni yaxshilash

- Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik foydalar keltiradi, balki odamlarning sog'lig'ini yaxshilashga ham yordam beradi. Masalan, toza havo, suv va oziq-ovqat resurslari, shuningdek, ifloslanishni kamaytirish orqali sog'liqni saqlashni yaxshilash mumkin.

7. Resurslarni samarali boshqarish

- Yashil iqtisodiyot resurslarni (suvi, tuproq, energiya) samarali ishlatish, ularni isrof qilmasdan va kelajak avlodlar uchun saqlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy va ekologik barqarorlikka olib keladi.

8. Chiqindilarni kamaytirish

- Yashil iqtisodiyot chiqindilarni qayta ishlash va foydalanish, shuningdek, chiqindilarni kamaytirish texnologiyalarini joriy etish orqali atrof-muhitga zarar etkazishni kamaytiradi. Bu ham ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytolamanki, yashil iqtisodiyot - bu tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni himoya qilish, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlarini kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Yashil iqtisodiyotning asosiy afzalliklari energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik toza texnologiyalarni rivojlantirishdir. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish va yangi ish

o‘rinlari yaratish imkoniyatlarini yaratadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot ijtimoiy farovonlikni oshiradi, sog‘liqni saqlashni yaxshilaydi va ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy tizimni yanada samarali va barqaror qiladi. Shu bilan birga, bu model mamlakatlar o‘rtasida global hamkorlikni kuchaytirish va yangi investitsiyalarni jalb qilish orqali yanada kuchli iqtisodiy tizimlarni shakllantiradi. Bunday tizimning joriy etilishi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim qadam bo‘lib, kelajakda barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga olib keladi. Shunday qilib, yashil iqtisodiyotning afzalliklari faqat atrof-muhitni saqlashda emas, balki butun dunyo miqyosida barqaror rivojlanish uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda ham katta rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet saytlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi".
2. G‘ulomova Sh.B. "Iqtisodiyotning yangi yo‘nalishlaridan biri — yashil iqtisodiyot va uning asosiy tamoyillari"
3. Jahon banki - "World Bank Energy Efficiency"
4. UNEP, "Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication", 2011-yil hisoboti.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti – (<https://prezident.uz/>)
6. FAO - Barqaror qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ma'lumotlar ((<https://www.fao.org>))
7. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq Xo‘jaligi Vazirligi ((<http://www.agri.uz>))
8. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi (<http://minenerg.uz>)
9. https://m.kun.uz/news/2024/06/21/ozbekiston-karbon-dioksidi-chiqindilarini-kamaytirgani-uchun-jahon-bankidan-75-mln-dollar-oldi?utm_source
10. <https://www.weforum.org/publications/global-risks-report-2025/>
11. [UNEP - UN Environment Programme](https://www.unep.org/)
12. <https://uz.eureporter.co/>
13. <https://www.iea.org>
14. https://iccwbo.org/content/uploads/sites/3/2012/08/Green-Economy-Roadmap-a-guide-for-business_policy-makers-and-society.pdf